


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60810500 – *Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti*
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

- Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti". Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanilish sohasi.....	4
1.1.1.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishiMalaka talabaning qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1	Kvalifikatsiyalar.....	9
2.3.2	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.3	60810500 - <i>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60810500 - *Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanilish sohasi

1.1.1. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60810500 - *Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar mazmunini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

-mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv hodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

-ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talablari;

-bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

-ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

-oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

Oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

-kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

-oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

60810500 - *Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti* – fan va qishloq va suv xo'jaligi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib u qishloq va suv xo'jaligi sohasida mahsulot ishlab chiqarish va avtomatlashtirish bilan bevosita va bilvosita bog'liq qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarishi va boshqa qishloq infrastrukturasi sub'ektlarida elektr energiyasidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan texnik vositalar, mahsulotlarni yetishtirishda, ularni birlamchi qayta ishlashda ishlab chiqarish resurslaridan ratsional foydalanish, avtomatlashtirish vositalarining texnik ekspluatatsiyasi va ulardan samarali (effektiv) foydalanishni ta'minlash uchun inson faoliyati vositalari, usullari, metodlari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- elektr energetika tizimlari, ichki irrigatsiya – melioratsiya tizimlari, noan'anaviy energiya manbalari va tizimlari, elektrotexnologik uskunalari;

- elektrotexnik qurilmalarni ekspluatatsiyalash jarayonlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari;
- elektr qurilmalarni ta'mirlash, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish tizimlari;
- qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarishida yuqori unumdorlikka ega avtomatikaning texnik qurilmalar, apparatlar va jihozlar va ularni nazorat qilish, rostlash va boshqarish tizimlari, ularni sozlash, ekspluatatsiya qilish usullari va vositalari, shuningdek nazorat, rostlash va boshqarish tizimlarining loyiha xujjatlari, ta'lim jarayonida mos kasb-xunar kollejaridagi o'quv-tarbiya jarayoni;
- Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy – boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot – tahliliy faoliyat;
- ilmiy – tadqiqot;
- loyiha – konstruktorlik;
- ekspluatasion va texnik servis;
- texnologik – ishlab chiqarish;

1.2.4. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- qishloq va suv xo'jaligida qo'llaniladigan texnologiyalar va texnik vositalarda energiya tejamkorlik ko'rsatkichlarini hisobga olish va baholash;
- qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muxofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida qishloq va suv xo'jaligi da energiya ta'minotida ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;

- kasbiy muammolar yechimini topish va ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- agrar sohada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- qishloq va suv xo'jaligi tashkilotlarining ichki xujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti tizimlarida loyihalar samaradorligini baholash;

-axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

-boshqaruv qarorlarining energetik samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

-agrar sohada ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishda energiya tejamkor elektrotexnologiyalari va texnikalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;

-qarorlar qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;

-respublika va xorijda chop etilgan qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minotiga oid ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o'rganish;

- qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

-berilgan mavzu bo'yicha axborotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

-ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:

-elektrofizik ta'sirlar va qayta tiklanuvchan energiya manbalarini qo'llash orqali energotejamkor agrotexnik usullar texnologiyasini ishlab chiqish, ixtisoslikdan kelib chiqqan holda chet el va vatanimizda qo'llaniladigan zamonaviy usullarni amalda qo'llay olish;

-loyihalashtirish va konstruktorlikda zamonaviy kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;

-agrosanoat majmui elektrotexnologik, elektrotexnik va elektromexanik qurilmalarini, avtomatik tizimlarini, elektr uzatish liniyalari va podstansiyalarini loyihalashtirish.

Ekspluatatsion va texnik servis faoliyatida:

-elektrotexnik va elektrotexnologik qurilmalarni ekspluatatsiya qilish va texnik servis sohasi meyoriy- huquqiy xujjatlaridan foydalana olish;

-elektrotexnik va elektrotexnologik uskunalar va jihozlaridan foydalanish, ta'mirlash va ularning texnik servisni tashkil etish;

-elektrotexnik va elektrotexnologik uskunalar hamda jihozlariga texnik servisi bo'yicha namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo'llash;

-qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minotida foydalaniladigan elektrotexnik uskunalarni va jihozlarni sinash, tashxis qo'yish va kamchiliklarni bartaraf eta bilish;

-qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minotida foydalaniladigan elektrotexnik qurilmalarning texnologik ishchi jarayonlari modellarini ishlab chiqish va tahlil qilishda hisoblash vositalaridan foydalana bilish;

-qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti sohalarida foydalaniladigan elektrotexnik qurilmalarni ekspluatatsiya qilish va ularga xizmat ko'rsatishda texnik servis usullarini qo'llay olish;

-qishloq va suv xo'jaligi energiya tizimlarida foydalaniladigan elektrotexnik qurilmalarning ish sifati ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash va xulosalash;

-inson sog'lig'ini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

Texnologik-ishlab chiqarish faoliyatda:

-magistral elektr tarmoqlari, qishloq elektr tarmoqlari korxonalarini qurilmalarini ekspluatatsiyani tashkil etish va tizimda elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilish;

-nasos stansiyalari va maishiy xo'jaliklar elektr qurilmalarini montaji, sozlash, ta'mirlash va ekspluatatsiyani tashkil etish;

-elektr uskunalarni ekspluatatsiya qilishda texnik nazorat, texnik muddatlarini asoslash, ish xajmi, ishchi kuchi, elektrotexnik materiallar va uskunalarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash va me'yoriy-texnik xujjatlardan foydalanish;

-ilg'or elektrotexnologik jarayonlarni qo'llash;

-ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;

-yangi samarali elektrotexnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

-atrof muhitni muxofaza qilish monitoringi va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

2. 60810500 - Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb muommoli masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'grisida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- meyoriy-huquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish obyektlari uchun elektr uskunalari tanlash, ichki va tashki elektr tarmoqlar hisobini hamda jarayonlarni avtomatlashtirishni amalga

oshira olishlari va ular asosida elektrlashtirish loyihalarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq va suv xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish agrotexnikasi va zootexniya talablarini qanoatlantiruvchi energiya tejamkor, samarali elektr texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

- qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish subyektlari uchun zarur elektr uskunalarni tanlashni bilishi, ularning samarali ekspluatatsiyasini tashkil etishi va amalga oshira olishi, ishlab chiqarishni boshqarishda energiya tejamkorlikka erishish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq va suv xo'jaligi obyektlari, ichki va xo'jaliklararo irrigatsion-meliorativ, elektr uskunalari va elektrotexnologik qurilmalari, hamda ularni elektr ta'minoti tizimi elektrotexnik uskunalarni texnik servisi va ekspluatatsiyalashni tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mavjud namunaviy metodikalar asosida qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish tizimida elektr uskunalarning ekspluatatsion ishonchligini oshirish va energiya tejamkorlikka erishishga oid eksperimental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qishloq va suv xo'jaligi obyektlarida elektrlashtirish va avtomatlashtirish tizimini texnik-iqtisodiy tahlil qilishni, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashni, biznes reja tuzishni bilish;

- Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personal), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbxunar ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbir etishni bilish;

- elektron qurilmalar elektr sxemalarini ishlab chiqishda yarim o'tkazgich priborlardan foydalanish, elektronika, maishiy xizmat va ishlab chiqarish elektr uskunalari montaji va sozlash, avtomatika vositalarini hisoblash va tanlash, montaj, sozlash va ekspluatatsiyalash, elektr yuritmalar sistemasini tanlash, elektr motorlar quvvatini tanlash, elektr yuritmalarni boshqarish sxemalarini ishlab chiqish, rostlash va kommutatsiyalash apparatlarini tanlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashni o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab – quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1 Kvalifikatsiyalar. Muhandis-elektrik

2.3.2. 60810500 - *Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:*

O'quv fanlar, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4680	156
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	600	20
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60810500 - *Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:*

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4680	156	1-8
1.01	O'EYaT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	F2106	Falsafa	180	6	3
1.03	O'ZRT O'TSQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.04	JMSM1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.05	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.06	MK1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	2
1.07	OM1112	Oliy matematika	360	12	1,2
1.08	F1110	Fizika	300	10	1,2
1.09	MKG2104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	3
1.10	IT1106	Issiqlik texnologiyasi	180	6	1
1.11	NAM1106	Nazariy va amaliy mexanika	180	6	2
1.12	G2104	Gidravlika	120	4	3
1.13	ATJMM1106	Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish	180	6	2
1.14	ENA2110	Elektrotexnikaning nazariy asoslari	300	10	3,4

1.15	EMeYu2106	Elektr mashinalari va elektr yuritma	180	6	3
1.16	ETMEUMT 2106	Elektr texnika materiallari.	180	6	4
1.17	EO'I3106	Elektr o'lchashlar va instrumentlar	180	6	5
1.18	EYoN3106	Elektr yoritish va nurlatish	180	6	5
1.19	ETT3106	Energiya ta'minot tizimlari	180	6	5
1.20	E3106	Elektrotexnologiya	180	6	6
1.21	ETA3106	Energiya tejamkorlik asoslari	180	6	6
1.22	HFX4106	Hayot faoliyati xavfsizligi	180	6	7
1.23	QTEMFT4106	Qayta tiklanuvchan energiya manbalari va foydalanish texnologiyalari	180	6	7
1.24	EUETS4106	Energetik uskunalarning ekspluatatsiyasi va texnik servis	180	6	7
1.25	ETTL4106	Energiya ta'minot tizimlarni loyixalash	180	6	8
1.26	EUTT4106	Elektr uskunalarning montaj texnologiyalari	180	6	8
2.00		ТАНЛОВ ФАНЛАР	1800	60	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1800	60	3-8
		Jami	6240	216	
		Malakaviy amaliyot	600	20	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	720	24	
			7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 632

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, ekspluatatsion va texnik servis, texnologik-ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, matematik usullar va modellar, mexanika, elektronika, elektrotexnologiya, qayta tiklanuvchan energiya manbalari, elektr ta'minoti, avtomatika, avtomatik boshqaruv, elektr tizimlarni loyihalash, energiya tejamkorlik, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, avtomatlashtirish, ilmiy boshqarish, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, qishloq va qishloq xo'jaligi obyektlarida energiya ta'minoti tizimlari, avtomatik nazorat, signalizatsiya va avtomatik himoyalash tizimlari, avtomatik rostdash tizimlari, elektr yuritmalari, mikroprotessorlar, kompyuter texnologiyalar.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor  **K. Komilov**

2023 yil « 10 » 07

M.O'.



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2023 yil « 21 » 07

M.O'.



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti**

Rektor  **B. Mirzayev**

2023 yil « 17 » 07

M.O'.



**Norin-Qoradaryo irrigatsiya
tizimlari xavza boshqarmasi
huzuridagi Nasos stansiyalari va
energetika boshqarmasi boshlig'i**

Boshlig'i  **U. Toxtarov**

2023 yil « 18 » 07

M.O'.



**Hududiy elektr tarmoqlari
Andijon hududiy filiali**

Direktor  **X. Yuldashev**

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti;
60810500 - Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta‘minoti ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar buyurtmachilari o‘rtasida**

“KELISHUV DALOLATNOMASI”

Toshkent sh. « 10 » 08 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori prof. B.Mirzayev, Hududiy elektr tarmoqlari Andijon hududiy filiali direktori X.Yuldashev, Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i U.Toxtarov, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov birgalikda «AQXAI» da ishlab chiqilgan 60810500 - Qishloq va suv xo‘jaligida energiya ta‘minoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-son farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsia etish mumkin.

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti rektori**



B. Mirzayev

**Hududiy elektr tarmoqlari
Andijon hududiy filiali direktori/**



X.Yuldashev

**Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari xavza
boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va
energetika boshqarmasi boshlig'i**



U.Toxtarov

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti rektori**



K.Komilov